

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA TALABALARDA
TADQIQOTCHILIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
AKSIOLOGIK YONDASHUVNING DOLZARBLIGI****Abdurazakova Zebiniso Akmalxon qizi**

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini shakllantirishda aksiologik (qadriyatga yo'naltirilgan) yondashuvning ahamiyati ochib beriladi. Raqamli ta'lim muhitida talabalarining mustaqil izlanish olib borishi, ilmiy fikrlashi va innovatsion g'oyalar yaratishida qadriyatlar tizimini shakllantirishning roli ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Raqamli ta'lim muhiti, ta'lim transformatsiyasi, tadqiqotchilik kompetentsiyalari, aksiologik (qadriyatga yo'naltirilgan) yondashuv, madaniy taraqqiyot.

**АКТУАЛЬНОСТЬ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В
РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ
В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ****Абдуразакова Зебинисо Акмалхон кызы**

Докторант Кокандского государственного университета

Аннотация. В данной статье раскрывается значение аксиологического (ценностно-ориентированного) подхода в формировании исследовательских компетенций студентов в процессе образовательной трансформации. Научно обоснована роль формирования системы ценностей в самостоятельной





исследовательской работе студентов, научном мышлении и создании инновационных идей в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова. Цифровая образовательная среда, образовательная трансформация, исследовательские компетенции, аксиологический (ценностно-ориентированный) подход, культурное развитие.

THE RELEVANCE OF THE AXIOLOGICAL APPROACH IN DEVELOPING RESEARCH COMPETENCES IN STUDENTS IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Abdurazakova Zebiniso Akmalxon qizi

Core doctoral student of Kokand State University

Annotation. This article reveals the importance of the axiological (value-oriented) approach in the formation of research competencies in students in the process of educational transformation. The role of the formation of a system of values in students' independent research, scientific thinking and creation of innovative ideas in a digital educational environment is scientifically substantiated.

Keywords. Digital educational environment, educational transformation, research competencies, axiological (value-oriented) approach, cultural development.

Kirish. Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida insoniyat hayotning ma'nosini tushunishga harakat qilib, u to'g'ridagi turli qarashlar, fikrlar yuzaga kelishiga, o'z navbatida, yangi qirralar ochilishiga turtki bo'lgan. Barcha falsafiy-ijtimoiy tushunchalar qatori qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonuniyatlari tushunchalarining mohiyatini ham ana shu tarixiy taraqqiyot asosida yoritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki insoniyatning ilk madaniy taraqqiyot davrlaridan boshlab bugungi rivojlangan zamonda ham ijtimoiy-falsafiy fikr egalarini bu jihatlar qiziqtirib keladi. Dunyo olimlari e'tibor markazida turgan ilmiy



muammolar qatorida yuqoridagi tayanch tushunchalarning hayotiy jarayonlar bilan uzviyligi masalasi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida transformatsiyalanmoqda.

Bu jarayon talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Aksiologik yondashuv esa tadqiqot faoliyatida shaxsiy va ilmiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Aksiologik yondashuvning nazariy asoslari. Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi fan bo'lib, ta'limni ma'naviy, intellektual va ijtimoiy qadriyatlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Pedagogik jarayonda aksiologik yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- shaxsning subyekt sifatida tan olinishi;
- ta'limning ma'naviy-axloqiy asoslari;
- bilim olish jarayonida qadriyat yaratish;
- ilmiy tafakkur va ijtimoiy mas'uliyat birligi.

Aksiologik yondashuv ma'naviy hayotda yaratilgan narsa va hodisalar inson hayoti uchun qay darajada ahamiyat kasb etishini asoslab beradi. Demak, ma'naviy hayotda yuz beradigan har qanday jarayonlarda shaxs ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi, o'zgalarga ulashishi bilan taraqqiy ettiradi. Sohadagi ma'naviy yaxlitlik bu insonning o'zini namoyon qilishida tashqi olam bilan aloqani chuqur aksiologik qonuniyatlar orqali olamga munosib bo'la olishi omilida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilik kompetentsiyasining mazmuni. Tadqiqotchilik kompetentsiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- ilmiy muammoni aniqlash;
- ilmiy manbalarni tahlil qilish;
- metodologiya asosida tadqiqot o'tkazish;
- natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish;
- ilmiy halollikka rioya qilish.



Ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasi talabalarning o‘z kasbiy sohalarida ilmiy izlanish olib borish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun nazariy asoslarni aniqlash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Raqamli ta’lim sharoitida mustaqil o‘qish va akademik halollik qadriyatlarini shakllantirish zarurati.
2. Innovatsion fikrlashni rivojlantirishda qadriyatlarning motivatsion omil sifatidagi roli.
3. Ilmiy madaniyatni shakllantirishda izchillik, ob’ektivlik, mas’uliyat kabi qadriyatlarning ahamiyati.
4. Talabaning shaxsiy o‘rishini qo‘llab-quvvatlash.
5. Ta’lim sifatini oshirishda aksiologik yondashuvning metodik imkoniyatlari.

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni bir necha asosiy omillarga bog‘liq: innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning integratsiyasi hamda o‘qituvchilarning malaka darajasi. Muhokama davomida aniqlanganidek, ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirishda tizimli va kognitiv yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Talabalarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish, loyiha asosidagi ta’lim va muammoli ta’lim metodlari ushbu jarayonni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Bu uslublar talabalarga real hayotdagi ilmiy masalalarni mustaqil tahlil qilish va hal qilish imkoniyatini beradi. Muhokamada innovatsion texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriyalar, onlayn



platformalar va interaktiv o'quv dasturlaridan foydalanish talabalar ilmiy faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekani qayd etildi.

Xulosa.

Aksiologik yondashuv ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarda tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Qadriyatlar tizimi bilan boyitilgan ta'lim jarayoni talabaning ilmiy fikrlashi, mas'uliyati va innovatsion faoliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
2. Mardonov SH., Xodjaev B., Taylanova SH., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 3-4.
3. Bruner, J. Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press, 1966.
4. Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill, 1967.
5. Davydov, V. V. Problemy razvitiya myshleniya v obuchenii. Moskva: Pedagogika, 1986.

